



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


***Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-sentabr***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 72-221-51-26***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 187 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 126 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi* 6 912,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga o'sdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 391,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 99,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 781,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 739,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	6 912,4	108,2
Jizzax sh	1 613,0	108,6
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	149,4	105,8
Baxmal	620,3	109,0
G'allaorol	782,1	109,7
Sh Rashidov	787,8	110,9
Do'stlik	324,4	105,7
Zomin	764,7	107,0
Zarbdor	310,0	104,0
Mirzacho'l	228,2	105,9
Zafarobod	144,6	104,1
Paxtakor	405,9	108,0
Forish	335,0	107,9
Yangiobod	91,2	106,0

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda


Sh.Rashidov (110,9 %), G'allaorol (109,7 %), Baxmal (109,0 %) tumanlari va Jizzax shahri (108,6 %) da chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari yuqoriligi kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida, o'tgan yilning mos oylariga nisbatan (foizda)




2024-yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati **108,2 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 24,6 % bilan 1 613,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,4 % bilan hajmi 91,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 6 520,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 8,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 391,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,2 % ga kamaydi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,7 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,6 %), Do'stlik (99,4 %), Zarbdor (99,3 %) va Forish (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (17,0 %), Jizzax shahri (8,6 %), G'allaorol (3,3 %), Sh.Rashidov (1,6 %) tumanlarida kuzatildi.

5,7 %



94,3 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



ming so'mda

Jizzax shahri

8 171,7

Forish

3 386,8

Arnasoy

3 049,8

Yangiobod

3 039,5

Baxmal

3 606,2

G'allaorol

4 153,7

Sh.Rashidov

3 212,8

Do'stlik

4 614,6

Zomin

4 220,3

Zarbdor

3 253,2

Mirzacho'l

4 090,1

Zafarobod


2 676,8

Paxtakor

4 979,7

2024-yilning 1-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 550,9 ming. so'mni (2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,9%) tashkil qildi.


Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (8 171,7 ming. so'm), Paxtakor (4 979,7 ming. so'm) va Do'stlik (4 614,6 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-sentabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavil‘onlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1 739,7	112,4
Jizzax sh	366,5	120,6
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	2,9	197,9
Baxmal	284,9	115,0
G‘allaorol	229,9	126,4
Sh Rashidov	120,9	80,4
Do‘stlik	90,0	115,6
Zomin	223,9	104,9
Zarbdor	135,5	105,4
Mirzacho‘l	71,2	113,8
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	99,2	115,8
Forish	86,0	122,1
Yangiobod	28,8	117,2


* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-sentabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 739,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 935,8 mlrd. so'mni (140,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 899,9 mlrd so'mni (113,9 %) tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 935,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi (30,7 mlrd.so'm) ga to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 30,7 mlrd. so'm  31,3 %	Non va non mahsulotlari 13,7 mlrd. so'm  14,0 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 9,1 mlrd. so'm  9,3 %
Tovuq go'shti 4,7 mlrd. so'm  4,8 %	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 4,4 mlrd. so'm  4,5 %	Tuxum 5,2 mlrd. so'm  5,3 %
Ziravorlar 6,0 mlrd. so'm  6,1 %	Sut va sut mahsulotlari 3,5 mlrd. so'm  3,6 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 15,0 mlrd. so'm  15,3 %
Tuzlamalar 1,2 mlrd. so'm  1,2 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 0,3 mlrd. so'm  0,3 %	Nooziq-ovqat tovarlar 4,2 mlrd. so'm 4,3 %

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 899,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 61,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 25,3 mlrd. so'mni, otlar – 1,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 31,6 mlrd. so'm  35,7 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 16,1 mlrd. so'm  18,2 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 13,5 mlrd. so'm  15,3 %
Qo'ylar 21,6 mlrd. so'm  24,4 %	Otlar 1,7 mlrd. so'm  1,9 %	Echkilar 3,7 mlrd. so'm  4,2 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,2 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 0,1 mlrd. so'm  0,1 %	



2024-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan o'sish, foizda
Jizzax viloyati	3 745,8	111,0
Jizzax sh	96,6	100,7
tumanlar :		
Arnasoy	3,8	101,2
Baxmal	15,9	102,0
G'allaorol	15,8	101,0
Sh Rashidov	50,1	101,4
Do'stlik	6,8	101,2
Zomin	43,7	228,1
Zarbdor	11,8	100,6
Mirzacho'l	5,2	101,5
Zafarobod	1,6	101,5
Paxtakor	6,9	101,2
Forish	7,1	101,2
Yangiobod	2,0	100,7

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 745,8 mlrd. so'mga yetdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida

	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	9 288,7	112,0
Jizzax sh	5 498,4	122,5
tumanlar :		
Arnasoy	2,9	135,1
Baxmal	2 286,2	105,7
G'allaorol	856,4	939,0
Sh.Rashidov	377,5	30,3
Do'stlik	2,7	135,1
Zomin	225,3	83,7
Zarbdor	0,3	135,1
Mirzacho'l	11,8	135,1
Zafarobod	0,8	135,1
Paxtakor	7,7	135,1
Forish	17,3	108,2
Yangiobod	1,4	135,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (5 498,4 mlrd. so'm), Baxmal (2 286,2 mlrd. so'm) va G'allaorol (856,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 9 288,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 5 961,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 4,7 m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 3 327,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 47,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'langan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'mda)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 240,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 44,3 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Yirik korxonalar

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi hisoblarga ko'ra 2 825,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 40,3 % ga o'sdi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,2 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI* VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Forish (18,0 m.), Jizzax sh (170,5 %) va G'allaorol (135,0 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	3 240,6	144,3
Jizzax sh	1 938,9	170,5
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	40,3	103,3
Baxmal	55,5	32,0
G'allaorol	92,3	135,0
Sh Rashidov	168,3	99,1
Do'stlik	35,2	66,9
Zomin	247,6	102,2
Zarbdor	55,2	88,1
Mirzacho'l	11,3	96,0
Zafarobod	11,6	91,5
Paxtakor	11,5	97,9
Forish	301,3	18,0 m.
Yangiobod	5,3	91,4

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda